


Axborot uzatish

Inson har kuni televizor ko'rayotganda, kitob o'qiyotganda, do'stlari bilan suhbatlashayotganda axborot qabul qiladi va uzatadi.



Kitob o'qiyotganda kitob axborot manbayi, Umida esa axborot qabul qiluvchi vazifasini bajaradi.

Suhbatlashayotganda biz bir vaqtning o'zida axborotni uzatamiz va qabul qilamiz.



O'qish jarayonida axborot manbayi (kitob)dan qabul qiluvchi (o'quvchi)ga bir tomonlama axborot uzatish sodir bo'ladi. Siz suhbat davomida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish bilan axborot almashinuvini amalga oshirasiz.



Axborotlarni turli yo'llar bilan uzatish mumkin: qog'ozga xat yozish orqali, elektron xabarnoma shaklida, telefon yoki videoaloqa orqali qo'ng'iroq qilib.

Telefon va kompyuter axborot uzatish qurilmalaridir.



1. Akmal do'sti Diyorni o'z uyiga taklif qilmoqchi. U do'stiga telefon orqali qo'ng'iroq qilishi yoki xabar jo'natishi mumkin.
- Axborot uzatishning bu usullari qanday afzallik va kamchiliklarga ega? Fikrlaringizni asoslang.





2. O'ylab ko'ring, qanday hollarda telefon orqali qo'ng'iroq qilish, qanday hollarda xabar yuborish qulayroq?



3. Tasavvur qiling. Kelajakda qanday axborot uzatish qurilmalaridan foydalilaniladi?



Ilgari axborot uzatish qurilmalari juda qo'pol va noqulay bo'lgan.



4. Savollarga javob bering.

- Axborot uzatish qanday sodir bo'ladi?
- Axborot uzatish va axborot almashinish jarayonlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?
- Axborot uzatish qurilmalari deb nimalarga aytildi? Misollar keltiring.

